

HARBIY TALIM FAKULTETI TALABALARINI VATANPARARLIK RUHIDA TARBIYALASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15129135>

Abdullayev Ortiq Mehriddinovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi.

Anatasiya: *Ushbu maqolada yosh talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida fikrlar bildirilgan. Davlat kelajagi bo'lgan yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanparvar, harbiy bilimga ega, milliy g'urur ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekani barchaga ma'lum. Maqoladan tegishli soha vakillari foydalanishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *talaba yoshlar, harbiy-vatanparvarlik, vatanparvar shaxs, ta'lim, ma'rifat, taraqqiyot.*

ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ

Абдуллаев Артык Мехриддинович

преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, факультет военного образования.

Аннотация. *В этой статье высказаны мысли о воспитании студенческой молодежи в духе военного патриотизма. Всем известно, что воспитание молодых людей, которые являются будущим государства, обладающих высокими духовно-нравственными качествами, гуманных, физически сильных, патриотичных, обладающих военными знаниями, в духе национальной гордости, является наиболее актуальной задачей современности.*

Ключевые слова: *студенческая молодежь, военно-патриотизм, патриотическая личность, образование, просвещение, развитие.*

EDUCATION OF STUDENTS OF THE FACULTY OF MILITARY TRAINING IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Abdullayev Ortiq Mekhriddinovich

Teacher of the Faculty of military education, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Annotation. *In this article, thoughts are expressed about educating young students in the spirit of military patriotism. It is known to everyone that educating the youth, who are the future of the state, with high spiritual and moral qualities, humane, physically strong, patriotic, with military knowledge, in the spirit of national pride, is the most urgent issue of today. The article can be used by representatives of relevant fields.*

Key words: *student youth, military-patriotism, patriotic personality, education, enlightenment, development.*

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat’i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg’usini shakllantirish, ularni o’z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo’naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko’p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko’zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo’lgan davlat xizmati turlarida faollik ko’rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo’lish, ularda o’z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

*yoshlarni milliy g’oya va O’zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

*qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo’lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo’lish tuyg’usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo’lgan ishonchni kuchaytirish;

*milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O’zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko’nikmalarni mustahkamlash;

*yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro’y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko’nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

*jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash.

O’zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo’lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib boorish

Vatan tuyg'usi — bu mustamlaka tuzumiga qarshi bosh ko'targan Toshkent, Jizzax, Andijon qo'zg'olonchilari, Dukchi Eshon xotirasini unutmastir.

Vatan tuyg'usi — bu zulm-istibdoddan qutulish uchun xalqni ma'rifatli bo'lishga chorlash, milliy uyg'onishga da'vat etgan, najot ilmda, birlikda va harakatda deb bilgan fidoyi ziyolilarni, ularning rahnamolari bo'lmish Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla xo'ja, Avloniy, Fitratlarning nomlarini doimo yodda saqlashdir.

Vatan tuyg'usi — bu yigirmanchi, o'ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarda xalqimizga qarshi uyushtirgan qatli ommaviy qatag'onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo'lgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari minglab millat gullarini unutmastir Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad — yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

Jangavor hayqirig'i ostida yoshlarni milliy g'oya va O'zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish.

Jangavor hayqirig'i ostida yoshlarni vatanga bo'lgan muhabbatni oshirishda va yoshlarni ongida;

O'zbekiston! Sen bizning qalbimizda yashaysan, sening sha'ningni ko'ksimizda ko'tarib, sening yo'lingda hech qanday to'siq yo'q! Vatanimizning har bir burchagida yurti sevgan insonlar, aziz ota-onalar, singil-opalar va bolalar bor. Biz birligimiz bilan dunyoga kuchli va mag'rur xalq ekanligimizni ko'rsatamiz. Qayerda bo'lsak ham, bizni O'zbekistonning mardligi va ma'naviyati birlashtiradi.

Biz, o'zbekistonliklar, doimo o'z yurtimizni himoya qilishga tayyormiz. Bizning g'alabamizni hech narsa to'xtata olmaydi, har bir nafasimiz Vatan uchun! Dushmanlarga qarshi jasorat va kuchimizni namoyish etamiz, qo'rquvdan hech narsa bilmaymiz. Bizni hech narsa to'xtata olmaydi, chunki bizning qalbimizda O'zbekistonning kuchi bor! Jonimiz fido, O'zbekiston! Har birimizning yuragimizda sening porloq kelajagingni yaratishga ishonch bor! O'zbekiston, sening qudratingni his qilaman! Sening yerlaringda mardlik va jasorat tarixi mavjud. Har bir yurakda sening muhabbating bor, va biz sening porloq kelajagingni yaratish uchun birlashganmiz! Sening va'dangni bajarish, shon-shuhratingni saqlash — bizning maqsadimizdir. Xavf-xatarlardan qo'rqmasdan, sening nomingni baland

tutamiz. Vatanimizning mustahkamligi va yuksalishi uchun barcha kuchimizni sarflaymiz, O'zbekiston, jonim fido! Biz birgalikda buyuk kelajak sari intilamiz. Haqiqiy jangovor ruhni faqat bitta narsa yaratadi – Vatanni sevish! O'zbekistonning boy tarixi, mard bobolarimizning jasorati va bugungi kunning yoshligi birlashib, yangi yutuqlarni qo'lga kiritishimizga turtki bo'lsin! Sizning kuchingiz va irodaniz hech qanday dushman to'siray olmaydi! Har bir qadamda, har bir g'alabada, biz O'zbekistonni dunyo bo'ylab ulug'lashtirishingiz mumkin degan g'oyalarani shakllantirish lozim.

*qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

*milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

*yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

*jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo'lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o'tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo'lgan tushunchadir. Vatan ostonadan, o'zi tug'ilib o'sgan go'shadan boshlanadi. Shuning uchun bola o'zi yashab, nafas olib turgan xonadonida ulg'ayib voyaga etishishida muhtasham va qudratli makon bo'lgan ona zaminiga mehr-muhabbat va sadoqati abadiy bo'lmog'i zarur. Har bir insonning vataniga bo'lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-onasining mehri bilan uning vujudiga singib boradi, ota-onasini avlod-ajdodlari, ularning an'analari, urf-odatlarini, kasb-korlarini sevuvchi farzand o'zgalarni ham sevadi. Millati, xalqi, adabiyoti, san'ati, dini va madaniyatidan g'ururlanib, o'zi o'sgan yurt tabiatidan ilhomlanib, uning muqaddas tuprog'i qadrini anglaydi.

Zero, hech bir inson Vatandan tashqarida baxt-saodat topa olmaydi. O'z yurtida obro' e'tibori bo'lmagan inson o'zga yurtda ham qadrlanmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda "O'zga yurtda sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l", "o'zga yurtda shoh bo'lgandan, o'z yurtida gado bo'lgan afzal", "O'lsang o'l, vatanningda bo'l!" kabi naqlar bejiz aytilmagan. Har kimning o'z xonadoni, uy-joyi, o'z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligini o'zga yurtga safarga, yashashga borgan inson biladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Furqat va boshqa bobokalonlarimizning o'zlari tug'ilib o'sgan vatanlaridan uzoqda kuchli Vatan sog'inchi-bilan yashaganlari, ona yurt tuprog'ini, unda

o'sgan mevalarni ko'zlariga to'tiyo qilganlari, yurt ishqida iztirob chekkanlari barchaga ayon. Ularning ruhiy kechinmalari haqiqiy vatanparvar kishining holatidir. Haqiqiy vatanparvar u qayerda yashamasin, Vatanning yaxshi kunida ham, yomon kunida ham uni tark etmaydi, u bilan birga bo'ladi. Jangovar tayyorgarlikning modernizatsiya qilingan, moslashuvchan tizimini joriy etish bilan uyg'un holda, Qurolli Kuchlarning yangi tashkiliy tuzilmaga o'tkazilishi milliy armiyamizning jangovar tayyorgarligi va jangovar qobiliyatini bir necha barobar oshirdi. Bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda.

Insondagi eng oliy tuyg'u — Vatan tuyg'usidir. O'zi tugilib-o'sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o'zga yurt tabiatidan o'z yurti tabiatichalik zavq ololmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan aql-zakovati butun, qalb qo'ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go'zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg'u namoyon bo'ladi. Vatan ham, vatanga muhabbat tuyg'usi ham ilohiy ne'mat bo'lib, butun qon tomirlarida shu tuyg'u jo'sh urgan insonda vatanfurushlik, vatanga xiyonatdek jirkanch vahshiylikka moyillik hech qachon bo'lmaydi. Xalqimizda "O'zga yurtning bag'lariyu-bog'chasi, o'z yurtningning yantog'icha ko'rinmas" deb bejiz aytilmagan. Vatan tuyg'usi — bu Vatanni himoya qilib, Vatan deya fido bo'lgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solihdek dodxoh, mulla Aliqul dodxoh singari yuzlab sher yuraklarni eslashdir

Vatanparvarlik — kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik — inson ma'naviy etukligining yuksak mezonlaridan istiqloq mafkurasining negizini tashkil etuvchi qadriyatni va his-tuyg'ularidan biridir. Vatanparvarlik hissini o'z farzandi qalbiga singdira olgan ota-onaning, shunday ruh, bilan yashaydigan xalqning kelajagi porloqdir. Vatanparvarlik — Vatan osoyishtaligi, ota-ona, El-yurt, jigargo'shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo'lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrori bilan puxta qurollanish, bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishdir. Vatanparvarlik— halol mehnat qilish zamirida mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib ulush qo'shish, el-yurt manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yish demakdir.

Vatanparvarlik — mamlakatimizda yashayotgan xalqlar, elatlar va millatlarning tili, dini, madaniyati, urf-odatlar an'analariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish va ularni o'rganish, millatlararo do'stlik, hamkorlik o'rnatish yo'lida fidoyilik ko'rsatishdan iboratdir.

Vatanparvarlik — Vatanni har qanday dushmanlardan (ichki va tashqi) himoya etish, millat, xalq, Vatan ozodligi, erkinligi yo'lida kerak bo'lsa jonini ham fido qilish demakdir.

Vatanparvarlik — jamiyat ravnaqi yo'lida jasorat va qahramonlik ko'rsatish hissining mujassamligidir. Vatanparvarlik — har ishda tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik ko'rsatish demakdir. Vatanparvarlik — insondagi mustahkam imon va e'tiqod, sog'lom tafakkur va sog'lom fikr birligidir.

ADABIYOTLAR:

1. Agzamov Inom Salimjonovich, & Khurramov Mansur Musurmon Ogli. (2021). ISSUES OF PHYSICAL TRAINING IN THE PROCESS OF MILITARY EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS . Archive of Conferences, 25(1), 69-72. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1088>)
2. Аъзамов, И. С., & Кочкаров, А. К. (2018). Методика применения интерактивных методов организации при проведении урочных занятий. Молодой ученый, (46), 271-274.
3. Umid Karabayevich, R. . (2022). The importance of improving the legal basis of military-professional education. Confrencea, 7(7), 89–91. Retrieved from <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/329>
4. Raxmatullayev, U. (2022). Vatanparvarlik tarbiya. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 1(2), 65-69. <https://econferences.ru/index.php/dptms/article/view/451>
5. Rakhmatullaev Umid Karabayevich, Xolmonov Mansur Narzullayevich. (2023). THE ESSENCE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC COMPETENCE IN TRAINING STUDENTS OF FUTURE TEACHERS OF PRE-CONTRACTION MILITARY EDUCATION. Journal of Advanced Zoology, 44(S2), 4523–4536. <https://doi.org/10.53555/jaz.v44iS2.2041>
6. Akbaralievich, T. A. (2022). PLANNING OF INITIAL TRAINING IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS BEFORE CONVOCATION. Confrencea, 7(7), 86–88. Retrieved from <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/328>
7. Tavakalov Alisher Akbaralievich. (2022). IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF LEARNING MILITARY CONCEPTS THROUGH INTERACTIVE METHODS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 5, 42–48. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/104>
8. Raxmatullaev Umid Karabaevich. (2024). STRATEGIC COMPETENCIES AS A SONNA IN LEARNING PLANNING. IMRAS, 7(6), 45–48. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1446>